



Tadqiqot.uz



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 YANVAR
№24**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
8-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
24-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-8**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
24-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-8**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 24-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Yakubova Naxoyat Axmedovna ABDULLA QAHNORNING «BEMOR» HIKOYASINI O‘RGANISH.....	7
2. Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna ABDURAHMON TAMKIN RUBOIYLARIDA DAVR NAFASI VA HASBI-HOL MOTIVLARI.....	9
3. Тўйчиева Дилдора Рапиқовна ТУРКИСТОН МИЛЛИЙ ТЕАТРЛАРДАГИ ИЛК САҲНА АСАРЛАР ҲАҚИДА (“САДОИ ФАРҒОНА” ГАЗЕТАСИ МИСОЛИДА)	11



АДАБИЁТ

ABDULLA QAHHORNING «BEMOR» HIKOYASINI O'RGANISH

Yakubova Naxoyat Axmedovna

Namangan viloyati Pop tumani

23-sonli umumta'lim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tel: +99 899 699 69 70

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk o'zbek hikoyanavisi, betakror ijodkor Abdulla Qahhorning «Bemor» hikoyasini 6-sinflarda o'qish hamda matn ustida yuzasidan fikrlar bildiriladi. Hikoyani o'rganish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: epigraf, hikoya, davr, tibbiy madaniyat, bola tili, keraksiz udumlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'limiy o'yinlar.

Umumta'lim maktablarida adabiyot darslarida o'quvchilar nutqining rivojlantirilishiga e'tibor qaratilishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, kitobxonlik madaniyati ham oshirilishi muhimdir.

6-sinflarda adabiyot dasturida o'zbek adabiyotining zabardast yozuvchisi, buyuk ijodkor, mohir hikoyanavisi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhorning «Bemor» hikoyasi o'quvchilarga o'qish uchun tavsiya qilingan. O'quvchilar bilan hikoya ifodali o'qilgach, albatta, matn ustida ishlash talab etiladi.

Matn ustida ishlash jarayonida dastlab hikoya sarlavhasi hamda unda epigraf sifatida qo'llangan «Osmon yiroq, yer qattiq» maqoli haqida suhbatlashamiz.

«Bemor» so'zi izohlanadi, ushbu so'zning ma'nodoshlariga to'xtalamiz.



Bemor – ma'lum bir kasallikka chalinish, ma'nodoshlari – *kasal, notob, mazasi yo'q, xasta, tobi qochdi* kabilar. Shu o'rinda „Kim topdi?“ ta'limiy o'yinidan foydalanish mumkin.

«Osmon yiroq, yer qattiq» maqoli hikoyada tasvirlangan davr uchun juda ham mos keladi. O'sha davrda odamlar tabaqalanib yashaganligini yoddan chiqarmaslik kerak. Tarixdan ma'lumki, XX asr boshlarida ruslar O'rta Osiyoni bosib olgan, mahalliy xalq esa juda qiyin ahvolda hayot kechirishar, bundan tashqari, odamlar o'qishi, bilim olishi murakkab holat edi, ilmsizlik natijasida insonlarda tibbiy madaniyat shakllanmagan edi. Shu jihatdan aholi turli udumlarga qattiq ishonardi.

Hikoya mazmuni bilan tanishgach, hazin hikoya ekanligiga iqrar bo'lamiz.

Albatta, bemor ayolga, uning ilojisiz qolgan eriga, murg'ak qizchaga rahmimiz keladi. Yuragimiz achiydi.

Nima uchun shunday bo'lyapti?

Sotiboldining xotini qanday kasalga chalingan edi?

Sotiboldi nima uchun xotinini shifokorga olib bormadi?

«Chilyosin» o'qitamizmi?

Kasal bo'lib qolsak, tabibga boramizmi?


Tibbiy madaniyat deganda nimani tushunasiz?

(O'quvchilar fikri tinglanadi, qo'shimcha ma'lumotlar beriladi)



XX asr boshlari

XXI asr



Hikoyada tasvirlangan timsollar : **Sotiboldi** – ilojsiz , hamma narsa pulga bog‘liq. Sotiboldida esa pul yo‘q. U imkonsiz holda, xotinini yolg‘iz tashlab ketolmaydi. **Sotiboldining xotini** – bemor, kuchsiz, madori yo‘q, u hech narsa qila olmaydi. **Qizi** –murg‘ak go‘dak, nima voqea sodir bo‘layotganini ham idrok etmaydi. Hatto onasining o‘limini ham tushunmaydi. «*Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin*» deb duo qila oladi, xolos.

Shu kichkina hikoyada birgina hayot manzarasi yordamida zamon qanday bermadi. U to‘qilgan savatlariga olgan puli kamligidan «Chilyosin» o‘qitish uchun baqqoldan yigirma tanga qarz olishga majbur bo‘ladi. Qarzni to‘lash uchun Sotiboldi yana kimgadir qaram bo‘lishi, tinimsiz mehnat qilishi lozim. Ko‘rinib turibdiki, oddiy xalqning yashash tarsi juda qiyin, imkonsiz holatlar ko‘p. Hikoyadan ma‘lum bo‘ladi, faqat Sotiboldining xotini bemor emas, balki jamiyat bemor – xasta, najotga zor, tuzalishga muhtoj.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 6-sinf Adabiyot darsligi. 2009-yil. Toshkent
2. Sharafjon Sariyev. Adabiyot. Metodik qo‘llanma.



ABDURAHMON TAMKIN RUBOIYLARIDA DAVR NAFASI VA HASBI-HOL MOTIVLARI

Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna
Buxoro davlat universiteti Mustaqil izlanuvchisi

Anatatsiya. Tamkin ijodida ruboiy janri ham o'ziga xos o'rin va ruboiy janrining o'ziga xos jihatlari. Xosa ruboiylar, taronayi ruboiylar. Shoir ruboiylarida ijtimoiy hayotning turli mavzulari haqidagi, inson ruhiy ruhiy olamining ko'z ilg'amas jihatlari haqidagi mavzular ilgari suriladi va bu shoir yashagan davr og'riqlari bilan qorishib ketadi.

Tamkin ijodida ruboiy janri ham o'ziga xos o'rin tutadi. Bizga ma'lumki, ruboiy o'zbek mumtoz adabiyotida keng qo'llanilgan janrlardan hisoblanadi. U hazaj bahrining axram va axrab shajaralarida, yoki o'lchovlarida yozilishi, to'rt misradan iborat bo'lib, ishqiy, axloqiy, diniy, falsafiy-siyosiy va ma'rifiy mavzularda bo'lishi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Mumtoz adabiyotda ruboiyning 2 xili borligi aruz haqidagi ilmiy asarlarda ko'rsatib berilgan:

- 1) xosa ruboiylar;
- 2) taronayi ruboiylar.

Ular bir-biridan qo'fiyalanish tizimi jihatidan farqlanishi haqida ilmga egamiz.

A. Tamkin ijodida, asosan, xosa ruboiylar uchraydi. Shoir ruboiylarida ijtimoiy hayotning turli mavzulari haqidagi, inson ruhiy ruhiy olamining ko'z ilg'amas jihatlari haqidagi mavzular ilgari suriladi va bu shoir yashagan davr og'riqlari bilan qorishib ketadi.

Demak, Tamkin lirikasida ruboiy ham katta mavqe tutadi. Unda mumtoz adabiyotimizdagi yetakchi obrazlar tizimi o'ziga xos mujassamlashgan. Shu bilan birga adib she'riyatini ijtimoiy motivlar bilan boyitilishiga katta hissa qo'shdi.

A. Tamkin hayoti ziddiyatli bir tarzda, adolatsizlik va riyokorliklar ichra kechgan bo'lsa-da, shoir fe'lidagi muloyimlik, hazinlik va hur fikrlik u yaratgan ruboiylarda ilmparvar oshiqning qalb sadosi va shoir ma'naviy olamining o'ziga xos oynasi bo'lib ko'rindi:

Ko'p pand berdi menga bu zabun zamon,

Ilm tahsili deb yutdim qancha qon.

Ko'p ranjlar chekdim-u bir naf ko'rmadim,

Hech kimsa bo'lmasin menday notavon.

Birinchi misradayoq shoir hayotining og'riqli nuqtalari va charxi bemuruvvatning bevafoligi haqida oshkora so'zlaydi.

Ikkinchi misrada esa, ilm olmoq yo'lida qanchalik og'ir kunlarni boshidan o'tkazganligiga ishora qiladi. Birinchi misrada shoir ahvolining og'irligiga ishora qilish barobarida, zamonaning o'zi ham "zabun" ahvolda ekanligiga diqqatni tortmoqda. Ikkinchi misra mohiyatida esa o'zi nochor, zabun ahvolga kelib qolgan ijtimoiy hayotda ham ilm-ma'rifat yo'lida qonlar yutib bo'lsa-da, uni rivojlantirgan "ilm ahliga" ishora qilmoqda. Demak, ilm yo'liga – haq yo'liga kirgan kishi uchun zamonning qanday holda bo'lishi farqsiz, u bu yo'ldan qaytmaydi, degan xulosa beriladi.

Keyingi misrada ana shu hodisa-sababning oqibati ko'rsatilmoqda: bu o'rinda ham vaqt, ham fursat, ham muddat tushunchasiga tayanilmoqda. Uning falsafasicha ilm yo'lida qancha qonlar yutib, ranjlar chekmasin bu yo'lning mashaqqatlari aro hali ancha notavon – ilmda ojiz va bilimsizligini anglaganini ta'kidlaydi. Shoir keyingi ikki misrada ham mantiqiy, ham ma'naviy ziddiyatni ilgari suradi. Demak, shoir nazdida ilm yo'li eng ulug' yo'l, lekin eng mashaqqatli yo'l, bu yo'lga chiqqan so'fiy banda-notavon kishi misolida, haq yo'lidagi "naf" dan ko'ra ozorlari ko'p yo'lida, degan g'oyani ilgari suradi.

Ruboiy qofiyasi **zabun, qon, notavon** so'zlaridan iborat bo'lib, asosiy g'oyani ochishda muhim omil bo'lgan. Shoir bu ruboiyda och qofiyadan, ya'ni to'liqsiz qofiyadan foydalangan va raviy sifatida "n" undoshi ohangdoshlikni hosil qilgan.

Ruboiyda mubolag'a san'atidan – tablig' mubolag'adan mohirona foydalanilgan. Masalan: "qancha qon yutdim", deganda, aslida, ilm yo'lining mashaqqat-u zahmatlariga ishora, ta'sirli holda, obrazli qilib ifoda etilgan.

Keyingi ruboiy oqil va donishmand insonlar haqida bo'lib, ularga qarama-qarshi holda johil va nodon odamlar obrazi qo'yiladi:

Hayotda hamnafas bo'lsa gar oqil,

Oz-oz suhbatidan bo'larkan komil.



Ey jonim, shu panddan chiqar xulosa,
Qoch, qayda duch kelsa befahm-u johil.

Shoir insonlarni komillik sari undab, bu yoʻlda oqil odamlar yonida boʻlishga chaqiradi va bu pandni oʻzi uchun ham dasturulamal hisoblab, qayerda befahm insonlar duch kelsa, ulardan qochib qutulmoqni maslahat beradi, goʻyo.

Aslida ushbu ruboiy mohiyatida juda katta falsafiy maʼno mujassamki, moddiy olam va ruhiy olam oʻrtasidagi kurashga ishora bor. Inson tashqi dunyodagi qarama-qarshi kuchlar oʻrtasida qay birini tanlashidan oldin, oʻz vujudidagi ziddiyatli kurashni yengmogʻi, ruhiyatidagi illatlarni bartaraf etmogʻi, aniqrogʻi, nafsini jilovlay bilmogʻi kerak. Ana shundagina komillik sari yoʻl tuta oladi.

Ushbu ruboiy – xosa ruboiyga mansub.

Qofiyalari: oqil, komil, johil soʻzlari.

Qofiya shakli: a-a, b-a.

Qofiyadagi tirgak tovush “l” undosh tovushi.

Qofiyada muqayyad qofiya turidan foydalanilgan.

Qofiyaning oʻzidayoq tazod sanʼati hosil qilingan: oqil-johil.

Shuningdek, mukarrar sanʼatidan – “oz-oz”; nido sanʼatidan – “ey jonim”; tanosib sanʼatidan – “oqil, komil; johil, befahm” - ham foydalanilgan.

A.Tamkinning yana bir ruboiysi odamiylik haqida boʻlib, unda inson sharafiga, ehtiromga, hurmatga odamiyligi bilan erishadi, sen ham shu fazilat egalari bilan doʻst tutin, bunday ulugʻ jihatdan xoli boʻlgan “noxalaf” – odamiylikdan yiroq boʻlgan kishilardan uzoq boʻl, degan gʻoya ilgari suriladi.

Odamiylikdan topar odam sharaf,

Anglamas bu soʻzni aslo noxalaf.

Boʻlma hamdam noxalafga, jonim-ey.

Topmasin desang agar umrim talaf.

Shoir ruboiy orqali, insonlarga berilgan umrni mazmunli, sharaflil oʻtkazish, soʻng afsus – nadomat chekmaslik kerakligini uqtirib, barchani yaxshilikka undaydi, yaxshilar yoniga chorlaydi.

Ushbu ruboiy ham xosa ruboiylardan. Qofiyaga olingan soʻzlar: **sharaf, noxalaf, talaf** boʻlib, raviyni “f” tovushi hosil qilmoqda va u muqayyad qofiya hisoblanadi.

Shoir bu ruboiyda “sintaktik zidlantirishdan” foydalana olgan. Yaʼni sheʼr mohiyatida hayotdagi ikkita qarama-qarshi kuch haqidagi xulosa berilgan.

Shoirning keyingi ruboiysi esa, rindona ruhda yozilgan. Bir qaraganda, umr oʻtib borayotgan boʻlsa-da, inson orzu qilishdan toʻxtamasligi, biroq orzuga yetmoq dushvor, hali bu kun kelmadi, menda esa vaqt yoʻq, dunyo gʻamida dilni dogʻlab, qora qismatdan qora tuproq sari borgum, afsus, lablarim bir bor orzu jomidan “qoniqish suvi”ni sipqormadi, orzulariga yetganidan yayrab kulmadi, degan fikr ilgari suriladi.

Umr oʻtar, tilimda orzuning nomi,

Kelmadi orzuga yetmoq ayyomi.

Dilda dunyo dogʻi, tuproqqa kirgum,

Labimni hoʻllamay orzuning jomi.

Koʻrinadiki, A. Tamkin ijodining katta qismini tashkil etgan ruboiylarda ham dunyoviy, ham ijtimoiy, ham ruhiy olamdagi masalalar qalamga olingan. Yoki, insonning ichki va tashqi goʻzalligini, uning buyuk insonparvarlik mohiyatini anglashda kishilarni yoʻldan ozdirguvchi nafsni yengish: yemoqlik, ichmoqlik, kiymoqlikdan tashqari, yana johillik, ilmsizlik, manmanlik kibr-u havo, dunyoparastlik, mansabparastlik, shahvat, koʻngli torlik, gʻazab, umuman, inson ruhini, qalbini bulgʻaydigan, uni Ollohdan uzoqlashtiradigan barcha illatlar zarari haqidagi ibratli fikrlar ilgari surilgan.

A.Tamkin ruboiylari umumbashariy gʻoyalarni ilgari surganligi bilan bugun ham oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. Ular yoshlarimizni ruhan, aqlan va maʼnan yetuk, sabrli va tadbirli qilib tarbiyalashdek nozik ishda ibrat namunasi boʻlib xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Buxoriylar boʻstoni”. S. Vohidov. Toshkent. 1998. 153- bet.
2. Tamkin devoni. Toshkent. Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondi. №337.3-b varaq
3. Doiy Javob. Zeboyhoi suxan yo ilmi dar zaboni forsiy. Isfihon. 1335 hijriy. 318.



ТУРКИСТОН МИЛЛИЙ ТЕАТРЛАРДАГИ ИЛК САҲНА АСАРЛАР ҲАҚИДА (“САДОИ ФАРҒОНА” ГАЗЕТАСИ МИСОЛИДА)

Тўйчиева Дилдора Рапиқовна

Наманган вилояти Поп туманидаги

47-ўрта мактабнинг тил ва адабиёти фани ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада XX аср бошларида Туркистон, хусусан, Фарғона вилояти-нинг баъзи шаҳарларидаги миллий театрларда намоёниш этилган илк хорижий ва маҳаллий ижодкорларнинг саҳна асарлари намоёниши ёритилган.

Калит сўзлар: Туркистон, театр, саҳна, драма, томошабин, актиёр, трагедия, ташаббус, комедия, фожеа.

XX аср бошларида Туркистон ўлкасининг турли шаҳарларида бир қатор миллий театрлар ташкил этилиб, маҳаллий халқларнинг дунёқарашининг шаклланишида муносиб ўринга эга бўлди. Мазкур муассасаларда ерли ижодкорларнинг асарлари билан бирга, хорижий адабиётшуносларнинг ҳам саҳна асарлари мунтазам намоёниш этиб борилган.

1914 йил 5 июлда Наманган шаҳар боғидаги “Свит” номли театр саройида Маҳмудхўжа Бехбудийнинг “Падаркуш” драмаси намоёниш этилган. Унга шаҳарда истиқомат қилувчи маҳаллий халқ вакиллари ташқари рус ва бошқа миллатлар ҳам ташриф буюрган. Ушбу театр томошалари талабнинг кучлилигидан анча вақт узуликсиз фаолият олиб бориб, саҳнада ранг-баранг асарлар намоёниш этилган. Бу ерда нафақат миллий, балки, чет эл асарлари ҳам хусусан, рус, турк тилидаги драмалар ўзбек актиёрлари томонидан маҳорат билан ижро этилган. “Свит”да туркча драма илк бор саҳнага олиб чиқилганида бу томошабинларга манзур бўлиб, уларнинг олқишларига сазовор бўлган. Бундан ташқари 1915 йил 27 апрелда кавказлик А. Комолнинг “Дажжол” трагедияси ва русчадан таржима қилинган (муаллифи берилмаган –Д.Т.) “Ман ўлмасам” комедиялари ҳам намоёниш этилган. Бунда маҳаллий ҳаваскорлар ўзларига топширилган вазифани ортиғи билан бажарганликларига алоҳида урғу берилган. Айниқса, “Ман ўлмишам” да хизматкор ролини талқин этган Иномжон, “Дажжол”да Шамши ролини ўйнаган Наимжонларнинг ижро маҳоратлари ҳаммада катта таассурот қолдирган. Маҳаллий мухбирлар театрнинг Туркистонга кириб келганига эндиgina икки йил бўлишига қарамай, актиёрларнинг бу каби ижролари уларнинг истеъдодлилигидан деган хулосага келишган.

Худди шунингдек, Ўш шаҳрида 1915 йилнинг 29 апрелида “Луч” номли театрда илк бор Бехбудийнинг “Падаркуш” фожеаси ва кавказлик А. Ҳақбердиевнинг “Оч ҳарфлар” комедияси намоёниш этилган. Бу ерда томоша намоёнишдан олдин йиғилганларга театр санъати ва унинг қонун-қоидалари ҳақида нутқ сўзланган. Томошадан сўнг “Исрофчи бойбачча” шеъри ўқиб берилган ва у йиғилганларга мақул келиб, кечани уюштирган Али Аскарровни гуллар билан олқишлашган. Ўшлик маҳаллий бойлардан Мирбобо оқсақол эса унга томоша яхши бўлганлигини, бундан аҳоли мамнунлигини, бундай театр кечаларини тез-тез ташкил қилиш кераклигини, бу йўлда ҳар қандай моддий ва маънавий ёрдам беришга тайёр эканлигини айтиб ўтган. Шунингдек у театр томошасини ташкил этишда ғайрат кўрсатган бир қатор тараққийпарварлар, ҳукумат вакиллари ҳамда ишбилармонларга, билет сотишдаги ёрдами учун Қудратуллох оқсақолга, мингбошилардан Мулло Носириддин ва Жамшидбекларга, дастурни тузишдаги хизматлари учун Ўшдаги рус-тузем мактабининг ўқитувчиси Баронесса хонимга ташаккурлар билдирган. Демак, мазкур шаҳардаги жадидларнинг маърифатпарварлик фаолиятларига бошқа соҳа вакиллари ҳам муносиб хисса қўшишган.

Қўқон шаҳрида ҳам Убайдулла Хўжаев раҳбарлигида ёш ҳаваскорлар томонидан 1915 йил 7 январда “Цирк” театрида “Тўй” ва “Жонли сурат” спектакллари намоёниш этилган.

Хулоса қилиб айтганда, XX аср бошларида Туркистондаги бир қатор шаҳарларда тараққийпарварларнинг ташаббуси билан миллий театрлар ташкил этилиб, уларда маҳаллий ва хорижий ижодкорларнинг саҳна асарлари намоёниш этилган.

Фойдаланилган манбалар:

1. Мулло Қобил Ғозибоев. Наманганда мусулмонча театр // Садои Фарғона, 1914, №41.
2. Муродий А. Наманганда ўзбекча театр // Садои Фарғона, 1914, №68.
3. Мухбир. Наманганда мусулмонча театр // Садои Фарғона, 1915, №121.
4. Мухбир. Ўшдан // Садои Фарғона, 1915, №121.
5. Хўқанд хабарлари. Мусулмонча театр // Садои Фарғона, 1915, №100.

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

(8-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
